

## **KOREYA TARIXIDAGI IJODKOR AYOL SHIN SAIMDANG HAYOTI VA IJODI**

**Panjiyeva Shaxodat Olimdjonovna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

**Mo'minova Surayyo Komiljonovna,**

**Omonova Zarnigor Bozor qizi**

DTPI "Filologiya" fakulteti Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi talabalari

### **ANNOTATSIYA**

*"Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qimmatli an'analar: halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharmu hayo, mehru oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar eng avvalo oilada shakllangan. Oila haqida so'z yuritish ekanmiz, avvalo, ko'z o'ngimizda Ona siymosi shakllanadi. Nima deganda oila muqaddasligini ta'minlovchi birinchi omil – Ona, ahli ayolning pokizaligi, oqilaligi, mehru muruvvati, sadoqati va vafodorligidir". I.Karimov. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti.*

**Kalit so'zlar:** *In Song, Shin Saimdang, Kannin shahri, "Donishmand ona" (어진 어머니) Li Sa On Yulgok*

### **АННОТАЦИЯ**

*«Если обратимся к истории нашего народа, самые ценные традиции и такие человеческие качества как чистота, совесть, честность, честь, милосердие, трудолюбие формировались в семье. Когда мы говорим о семье, перед нами, прежде всего, предстает образ матери. Потому что главным фактором обеспечивающим святость семьи является высоконравственность, благородство, целомудренность, преданность, матери и женщины». И.Каримов, Первый президент Республики Узбекистан*

**Ключевые слова:** *Ин Сонг, Шин Саймдан, город Каннада, «Мудрая мать» (эоджин омеон) Ли Са Он Юлгок.*

### **KIRISH**

O'rta asrlarda Koreya ayollari she'riyat bilan shug'ullanishi, rasm chizishi va hatto san'atga oshno bo'lishi mumkin emas edi va bunday imkoniyatlarga faqat erkaklar ega edilar. Ayollarning vazifasi esa faqat kashtachilik, tikuvchilik qilishi va doimo o'zlarining umr yo'ldoshlarini mamnun qilib, ularning xohish-istaklarini

bajara olishi kerak edi. Qahramonimiz Shin Saimdang bu qonun qoidalarga birinchilardan bo'lib, o'z hayotini xavf ostiga qo'ygan holda qarshi chiqdi .

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Shin Saimdang (1504-1551) Koreya tarixidagi eng taniqli va mashhur ayollardan biri hisoblanadi. Asl ismi In Son. U 1504-yil 9-oktabr sanasida Konvondo provinsiyasining Kannin shahrida dunyoga kelgan va bu shaharda ona tomonidan bobosi va buvisining uylarida voyaga yetgan. Otasi Shin Myunghva amaldor bo'lib xizmat qilgan. Saimdangning onasi olim Li Sa Onning yagona qizi edi.

Pensang Shin Oilasi vakili bo'lgan In Son beshta farzandning to'ng'ichi edi. Oilada In Sondan keyin yana to'rtta qiz farzand dunyoga keldi. O'g'il merosxo'rlar bo'lmagani uchun, uning bobosi Li Sa On Shinga o'rta asrlarda Koreyada zodagon oilasida tug'ilgan yigit bilishi kerak bo'lgan hamma narsani, jumladan she'riyatni, rassomchilik, xattotlik va adabiyotni o'rgatgan. Lekin mana shu ko'plab bilimlar ichidan rassomchilikka mehri bo'lakcha edi. Rassomchilik uning hayoti mazmuniga aylanib borardi. Shuning uchun ham bo'sh vaqt topishi bilanoq rasm chizish bilan shug'ullanardi. Rassomlik san'atini shu qadar mohirona o'rgandiki uning chizgan rasmlari huddi tirikday bo'lib ko'zga tashlanardi. Ma'lumot uchun ta'kidlash joizki Shin Saimdang o'sha davr ayollari uchun hos bo'lmagan ta'lim olgan edi.

1522-yil 20-avgustda (19 yoshida) Saimdang Yi Von Suga turmushga chiqdi. Umr yo'ldoshining roziligi bilan Saimdang ota-onasi bilan Kangvon viloyatidagi ota-bobolarining uyi Ojukxonda(ota uyi) birinchi o'g'li Yulgok tug'ilgunga qadar yashagan. Keyinchalik esa, umr yo'ldoshiga harbiy xizmat safarlarida hamroh bo'ldi, bu holat ham o'sha davr ayollari uchun hos bo'lmagan vaziyat edi. Chunki ayollar umrini uy-ro'zg'or ishlari bilan band bo'lib sayohatlarga istisno holatlardagina chiqishar edi. Shin Saimdang tengdoshlariga qaraganda ko'proq mas'uliyatga ega edi. Sababi u yetti nafar farzandini tarbiyalashi , shu bilan birga u o'g'il farzandsiz oiladan chiqqani uchun qarigan ota-onasiga o'zi g'amxo'rlik qilishi ham kerak edi. (Choson koreys madaniyatida oiladagi to'ng'ich o'g'il ayoli bilan birga ota-onasini vafot etguniga qadar ta'minlashi va ularga g'amxo'rlik ko'rsatishi shart edi.)

Oilada yetti farzand dunyoga keldi: to'rt o'g'il va uch qiz. Farzand tarbiyalashda ona ota uyida o'zlashtirgan barcha bilim va ko'nikmalarni ishga soldi. Shu sabab bo'lib balki qizlaridan biri onasining iste'dodini meros qilib olib, rassom bo'ldi. O'g'illar o'zlari uchun turli sohalarni tanladilar - biri siyosatchi bo'ldi, ikkinchisi harbiy xizmatchi, uchinchi she'riyatga oshno bo'ldi. 32 yoshida u uchinchi o'g'li Yi Li ni dunyoga keltirish uchun Kanninga qaytib keladi. Yi Li keyinchalik mashhur

konfutsiy olimi va faylasufga aylanadi. Afsonaga ko'ra, homiladorligi vaqtida Shin tushida oq ajdahoni ko'rgan, bu esa bolaning mashhur va iste'dodli bo'lishining belgisini anglatgan edi. O'g'li tug'ilgandan so'ng, Shin Saimdang bu tushining ro'yobga chiqishi uchun sayi harakatlarini ayamadi.. Bularning barchasi unga Koreyada "Donishmand ona" (어진 어머니) tahallusini olishga sabab bo'ldi. Hozirgacha Koreyada Shin Saimdang qiyofasi o'z farzandlari uchun g'amxo'r va mehribon bo'lgan ayolning ramzi sifatida yodga olinadi. Shu bilan birga Shin Saimdan o'zining asosiy va sevimli mashg'uloti bo'lgan – rassomchilikka ham vaqt ajrata olgan. Biroq U o'zining nodir iste'dodiga qaramay, uzoq vaqt xalq orasida ko'plab noroziliklarga uchradi. Buning asosiy sababi o'sha davrlarda rassomchilik bilan faqat erkaklar shug'ullanishar edi va zamondoshlari bu ayolning "haddan tashqari" jasoratini yoqtirishmasdi.

Uning mo'y qalamiga 40 ta rassomchilik asarlar tegishli. Koreys rang tasvirida rassom o'simliklar, hasharotlar, baliqlar, uzumlar, kapalaklar, gullar, manzaralarni tasvirlab, o'ziga xos uslub yaratuvchisi sifatida tarix zar varaqlarida o'chmas iz qoldirgan. Hozirgi vaqtda uning ko'p asarlari saqlanib qolmagan. Biroq olimlarning yozma manbalarda qayd etishicha 16-asrda ham uning bu asarlari keng shuhrat qozongan.

Shin Saimdang rasm chizish bilan cheklanib qolmay, o'sha paytda ayollar uchun "odobsiz" sanalgan yana bir san'at turi bilan ham shug'ullangan: u she'riyat bilan ham yaqindan tanishgan va ko'plab she'rlar yozgan. Shin Saimdang qalamiga mansub she'rlar ko'pincha ota-ona, ona yurtiga, o'z onasiga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbatga, bag'ishlangan. Hamda u she'rlari orqali bolalarga mehrini, vafot etgan ota-onasini, bolaligi o'tgan ona yurtlarini sog'inchini izhor etgan. Iste'dodli rassom va shoira juda erta vafot etdi. U 48 yoshida bu yorug' olamni tark etdi. To'ng'ich o'g'li boshqalardan ko'ra ko'proq g'am anduhga botdi, qayg'uga dosh berolmay, onasini qumsab baland tog'larga chiqib mehribon volidasini qidirdi.

Shin Saimdon vafot etganiga qarib besh yuz yildan oshganiga qaramay uning farzand tarbiyasidagi urinishlari farzandlik burchlarini anglab uni go'zal tarzda amalga oshirishi rassomchilik xattotlik va she'riyatga qo'shgan hissalarini hali hamon Koreya xalqi tomonidan chuqur hurmat bilan yodga olinadi.

Yigirma birinchi asrga kelib Koreyada Saimdangni mukofoti joriy etilgan va mazkur mukofoti bilan har yili kasbiy muvaffaqiyatga erishgan va eng asosiysi namunali ona bo'lgan ayollar qo'lga kiritadilar. Hozirgi kunda Seul ko'chalariga Saimdang nomi berilgan bronzadan yasalgan haykali Seul markazidagi Sajik bog'iga

oʻrnatilgan. Shuningdek uning qiyofasi 2009-yilda muomalaga kiritilgan yangi 50 000 von kupyurasida oʻz aksini topdi va uning xotirasiga shtamplar chiqarildi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak Shin Saimdang oʻzining qatʼiyatligi, bilimdonligi, dunyo qarashining kengligi, mehribon ona va sadoqatli yor sifatida hozirgi kunga qadar ayollarga goʻzal namuna boʻlib kelmoqda.

### **REFERENCES**

1. Yi Seong-Mi, *Sin Saimdang: The Foremost Woman Painter of the Choseon Dynasty*. (London: M.E. Sharpe, 2004). ISBN 978-0765611888
2. Kim-Renaud, Young-Key. *Creative Women of Korea: The Fifteenth Through the Twentieth Centuries*. Routledge, 2003. ISBN 978-0765611888
3. Yi, Seong-Mi. *Sin Saimdang: The Foremost Woman Painter of the Choseon Dynasty*. London: M.E. Sharpe, 2004. ISBN 978-0765611888

### **Internet resurslari:**

1. [https://www.koreatimes.co.kr/www/art/2017/03/691\\_225097.html](https://www.koreatimes.co.kr/www/art/2017/03/691_225097.html)
2. <https://remch-ch.livejournal.com/1451036.html>
3. [https://www.newworldencyclopedia.org/entry/Shin\\_Saimdang](https://www.newworldencyclopedia.org/entry/Shin_Saimdang)
4. <https://veryimportantlot.com/ru/news/obchestvo-i-lyudi/korejskaya-hudozhnica-buntarka-sin-saimdan-poetichnaya-zhi-vopis-vostoka>